



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi

_____ boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi

_____ maktabgacha ta'lim tashkiloti

_____ o'zgi sog'lomlashtirish davrida

_____ ishtarini tashkil etish bo'yicha

METODIK TAVSIYA



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligining
2025-yil "19"-maydagi
162-son buyrug'iga
1-ilova

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yozgi sog'lomlashtirish davrini tashkil
etish bo'yicha Respublika ishchi guruh
TARKIBI**

- | | | |
|-----|------------------|--|
| 1. | F.Boqiyev | - Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari, <i>ishchi guruh rahbari</i> |
| 2. | H.O'rinov | - Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktorining birinchi o'rinbosari, <i>ishchi guruh rahbari o'rinbosari</i> |
| 3. | F.Kushnazarov | - Soha infratuzilmani rivojlantirish departamenti direktori, <i>a'zo</i> |
| 4. | M.Yuldashev | - Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 5. | A.Kamalov | - Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 6. | L.Berdiyeva | - Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori o'rinbosari, <i>a'zo</i> |
| 7. | S.Maxsudov | - Ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash bo'limi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 8. | X.Turaxodjayev | - Sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 9. | G.Parpiyeva | - Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga metodik xizmat ko'rsatish va ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 10. | D.Xasanova | - Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarni salomatligini ta'minlash bo'limi boshlig'i, <i>a'zo</i> |
| 11. | S.Rahmonberdiyev | - Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga metodik xizmat ko'rsatish va ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi, <i>kotib</i> |

Izoh: *Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning o'rniga tayinlangan yoki vazifa yuklatilgan shaxs ishchi guruh a'zosi hisoblanadi.*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligining
2025-yil “19”-maydagi
162-son buyrug‘iga
2-ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**MAKTABGACHA TA’LIM
TASHKILOTLARIDA YOZGI
SOG‘LOMLASHTIRISH ISHLARINI
TASHKIL ETISH BO‘YICHA
METODIK TAVSIYA**



Toshkent-2025

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sogʻlom rivojlanishi va ularning jismoniy, maʼnaviy, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda maktabgacha taʼlim tashkilotlarining roli katta ahamiyatga ega.

Yozgi davr bolalar uchun nafaqat dam olish, balki ularning sogʻligini mustahkamlash, tabiat bilan yaqindan aloqa qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish, yangi koʻnikmalarni egallash va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash uchun qulay imkoniyatdir.

Shuning uchun ham yozgi sogʻlomlashtirish ishlarini toʻgʻri tashkil etish maktabgacha taʼlim tashkilotlarining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu metodik tavsiyaning maqsadi – maktabgacha taʼlim tashkilotlarida yozgi davrni samarali tashkil etish, bolalarga qiziqarli va pedagogik jihatdan mazmunli faoliyat sharoitlarini yaratish, shuningdek, ularning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yagona yondashuvni shakllantirishga koʻmaklashishdir.

Unda yozgi oylarda bolalar bilan olib boriladigan faoliyat turlari, mehnat va dam olish tartibi, ommaviy sogʻlomlashtirish tadbirlari, ota-onalar ishtiroki, xavfsizlik texnikasi qoidalari kabi amaliy jihatlar oʻz aksini topgan.

Metodik tavsiya Oʻzbekiston Respublikasining “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisidagi” 2019-yil 16-dekabrda OʻRQ-595-son, “Taʼlim toʻgʻrisida” 2020-yil 23-sentabrda OʻRQ-637-son Qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha taʼlim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash toʻgʻrisidagi” 2020-yil 22-dekabrda 802-son, “Maktabgacha taʼlim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi” 2019-yil 13-mayda 391-son, “Davlat maktabgacha taʼlim muassasalarida sogʻlom ovqatlanirish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisidagi” 2019-yil 25-iyulda 626-son qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi va Sogʻliqni saqlash vazirligining “Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sogʻligʻini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 30-aprelda 20/1, 10-qq/1-son qoʻshma qarorlariga (*Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 14-mayda roʻyxatdan oʻtkazilgan, roʻyxat raqami 3012*), Oʻzbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining “Oʻzbekiston Respublikasida maktabgacha taʼlim muassasalarining joylashuvi, tuzilishi va tashkillashtirishga oid sanitariya-gigiyenik talablar” 2021-yil 1-martda 0355-18-son qarori (*Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 1-martda hisobga olindi, hisob raqami 6-son*), Oʻzbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining “Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar

” 2021-yil 17-iyulda 0016-21-son qarori (*Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda hisobga olindi, hisob raqami 30-son*), Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi hamda Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining “Maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida

tibbiy xizmatni takomillashtirish to'g'risida" 2024-yil 11-dekabrdagi 18 va 41/qq-son qarori va boshqa amaldagi mavjud me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida hamda sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish dasturlari va xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, barcha yosh guruhidagi bolalar, pedagoglar hamda ot-onalar uchun qo'llanma vazifasini o'taydi.

Yozgi sog'lomlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish orqali bolalarning immunitetini oshirish, ularga tabiatni asrash va parvarish qilish tuyg'usini singdirish, jismoniy faollikni rag'batlantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

Metodik tavsiya maktabgacha ta'lim xodimlariga yozgi davrda bolalar bilan ishlash jarayonida yordam berish, ularning kasbiy ko'nikmalarini yanada rivojlantirish va sog'lom avlod tarbiyasiga hissa qo'shish maqsadida tayyorlangan. Undan samarali foydalanish orqali har bir bolaning yozgi sog'lomlashtirish davrini mazmunli, xavfsiz va esda qolarli qilishga erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining yozgi sog'lomlashtirish davrini samarali tashkil etishdagi asosiy vazifalari:

Tashkilotning yozgi sog'lomlashtirish davri uchun ish rejasi, faoliyatlar jadvalini pedagogik jamoa bilan hamkorlikda tuzish;

bolalarni sog'lomlashtirish va chiniqtirish, mavsumni samarali o'tkazish, mazmunli dam olishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish;

yozda bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish masalalarini ota-onalarning pedagogik va ijtimoiy ta'limini amalga oshirish;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoatni qamrab olinadigan mas'uliyat talablariga muvofiq tarbiyalanuvchilarning suv ichish rejimini ta'minlash va nazoratga olish;

ota-onalar o'rtasida bolalarni sog'lomlashtirish davri haqida kasallanishning oldini olish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazish;

tarbiyalanuvchilarning sog'lom va xavfsizlikni ta'minlash uchun tashkilotga begona shaxslarning kirib-chiqishini nazorat qilish;

sanitariya-gigiyena talablariga rioya bo'lish, zararli zarlantiruvchi vositalarning doimiy zaxirasi mavjudligini yozdagi mavsumning o'tkazish qoidalariga amal qilinishini ta'minlash;

tarbiyalanuvchilarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun tasdiqlangan ro'yxatda mavjud vositalar va tibbiy buyumlarga bo'lgan ehtiyojni o'rnatilgan tartib asosida ta'minlash;

tarbiyalanuvchilarni sog'lomlashtirishni mustahkamlash, ular orasida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish odatlarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni keng o'tkazish;

yozgi mavsumda mavsumiy kasalliklar (o'tkir ichak kasalliklari) ko'payishi ehtimoli bo'lganligi uchun tibbiyot xodimlari tomonidan ushbu kasalliklarning oldini olish yuzasidan profilaktika tadbirlarni tashkil etishlarini ta'minlash;

shkollarning dudi va binolarida bolalar jarohatlanishining oldini olish bo'yicha xavfsizlik talablarini amalga oshirish;

tarbiyalanuvchilarning o'sishi, rivojlanishi va sog'ligini muntazam ravishda kuzatib borishni hamda tibbiyot xodimlari tomonidan reja asosida tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishini ta'minlash;

o'rnatilgan maviy tarzda ovqatdan zaharlanish holatlarini oldini olish maqsadida xarid qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, gigiyenik talablarga javob berishi, ularni saqlanishi, taom tayyorlashda yagona mavsumiy taomnoma, sanitariya-gigiyena qoidalari va tayyorlash texnologiyalariga to'liq amal qilishini nazoratga olish;

SanQvaN 0016-21-son me'yor talablarida belgilanmagan mahsulotlarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kiritilishi, bayramlar va boshqa tadbirlarda ota-onalar, homiylar tomonidan bolalar iste'moli uchun turli pishiriqlar, shirinliklar, ichimliklar hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini olib kirilishini qat'iy ta'qiqlanishini ta'minlash;

oshxonalar va guruhlarda idish yuvish bo'linmalarining sanitariya-gigiyenik holati

va bevosita ovqatlantirishni tashkil etishda ishtirok etadigan oshpaz, oshxona xodimlari, tibbiyot hamshirasi va xo‘jalik mudirining belgilangan sanitariya-gigiyena talablariga qat’iy amal qilishlarini nazoratga olish; yuqumli kasalliklar, ovqatdan zaharlanish holatlari aniqlanganda, bu haqda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining hududiy bo‘linmalariga ma’lum qilinishi, zarur hollarda bolaning ota-onalarini xabardor qilgan holda bemor bolani maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari nazoratida zudlik bilan shifoxonaga yotqizilishini ta’minlash.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti Ma’muriy-xo‘jalik ishlari bo‘limining yozgi sog‘lomlashtirish davrini samarali tashkil etishdagi vazifalari:

Xo‘jalik mudiri (xo‘jalik ishlari bo‘yicha mas’ul shaxs) bilan birgalikda hududni obodonlashtirish (*yashil maydonlar va yashil yashliklarini to‘ldirish, basseynni tayyorlash, ayyiqcha va boshqa hududini ta’minlash, ularni bo‘yash, daraxt va butalarga shakllantirish*) amalga oshirish; SanQvaM talablariga mos jismoniy ta’lim o‘yin maydonchasini jihozlash; yer maydonlarini sug‘orish, bolalar uchun suv bilan ta’minlash; bolalar ochiq havoda vaqtini o‘tkazish uchun xavfsiz rivojlantiruvchi muhit yaratish;

xonalarga hasharotlar zarari kinishini oldini olish maqsadida derazalarni doka yoki setka bilan, eshiklarni to‘r yoki qalinligi 2,5 mm dan ortiq bo‘lmagan sintetik materiallar bilan qoplamalarni ko‘rish; tashqi va ichki o‘yin maydonlarining ayumin yoki profillardan ishlangan eshiklaridagi oynalarni sinib ketgan, yoki tashqi qismi plyonka bilan qoplangan maxsus oynalarga almashtirish, choralarni ko‘rish.

ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish: tashkilot direktor o‘rinbosari va pedagog (*jismoniy tarbiya rahbari, musiqi rahbari, psixolog*)lar va tarbiyachilar bilan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishiga rahbarlik qilish;

maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonini o‘z ichiga olishda uslubiy maslahat va ko‘rsatmalar berish;

tashkilot tashkil etilgan yozgi sog‘lomlashtirish davridagi barcha chiniqtirish tadbirlari, ovqatlantirish va ta’lim-tarbiya jarayonini nazoratga olish.

ovqatlantirishni tashkil etilishi: tibbiy xonani birinchi yordam uchun zarur dori vositalari bilan to‘liq ta’minlash, taomnomalarni “Yagona mavsumiy taomnoma” asosida mavsumga mos tuzilishi, bolalarni sog‘omlashtirish va chiniqtirish tadbirlarini tashkil etilishiga rahbarlik qilish;

sog‘lomlashtirish va chiniqtirish tadbirlarini o‘tkazish uchun zarur sharoitlarni yaratish.

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

35 listdan iborat yoz davr MTT metodik tavsiyani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyeu Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.